

O'zbekistonda tolerantlik diniy bag'rikenglikka etibor.

Qo'qon davlat pedagogika instituti
"Tarix" kafedrasida katta o'qituvchisi,
Azimov Adhamjon Solijonovich

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekistonda barcha yashayotgan xalqlarni tolerantlik diniy bag'rikenglik qonunlarimizda etibor qaratilganli aks etgan.

Kalit so'z: Din ishlari bo'yicha qo'mita, vijdon erkinligi, konfessiya, diniy xotin-qizlar qo'mitasi, "Ziyo" media-markazi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi 5 yil davomida diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o'tkazilgan yalpi majlisda «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.

2018-yil 16-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3668-sonli Qaroriga muvofiq Qo'mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblanmish Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a'zoga – O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi[1].

2018-yilning 16-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5416-sonli Farmoni imzoladi. Mazkur hujjat O'zbekistonda diniy ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan: boshlang'ich bosqichdan (o'rta maxsus islom ta'lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliy va undan keyingi diniy ta'limgacha.

Bundan tashqari din ishlari bo'yicha qo'mita tarkibida ayollar bilan ishlash bo'limi tashkil yetildi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlarni nazorat qiluvchi rais

o'rinbosari lavozimi ham joriy etildi. Xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika targ'ibot guruhi tashkil yetildi.

O'zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tashkil yetildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi.

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi huzurida "Ziyo" media-markazi tashkil yetilib, u ajdodlarimizning diniy-ilmiy merosini keng targ'ib qilish, dinning haqiqiy insonparvarlik maqsadini hamda diniy-ma'rifiy hayotda sodir bo'layotgan yangiliklardan keng jamoatchilikni xabardor qilib borishni ta'minlovchi asosiy media-tuzilma hisoblanadi.

O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi masjidlar, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va shu kabi boshqa obyektlarning rekonstruksiyasini moliyalashtirish, ularni moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ushbu soha xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

2018-yilning yanvar-aprel oylarida Respublika miqyosida bir necha bosqichdan iborat (tuman, shahar, viloyat, respublika) Qur'oni karim tilovati bo'yicha qorilar ochiq musobaqasi tashkil yetilib, unda 5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi.[2]O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil yetildi. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida ilmi va tasavvufni o'rganishga ixtisoslashgan beshta ilmiy maktab ochildi. Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan O'zbekistonda Markaziy Osiyo musulmon mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasi rivojidadagi roliga bag'ishlangan 10 dan ortiq kitob va risolalar tayyorlandi.

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Termiziy, Hakim Termiziy va termizlik boshqa olimlarning 20 dan ortiq asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi [3]Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Nasafiy, Alouddin Usmondiy, Saffar Buxoriy va h.k. kabi ulug' allomalar asarlarining aksariyati tarjima qilinib, 50 dan ziyod kitob nashr yetildi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti,

166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda.

2019-yilda O'zbekistonda 10 ta yangi jome masjid ochildi, natijada masjidlarning umumiy soni 2066 taga yetdi. Bundan tashqari mamlakat miqyosida 46 ta jome masjid binosi butunlay qaytadan bunyod yetilib, 225 ta masjid kapital ta'mirdan chiqarildi. 2018-yilda esa respublikada 13 ta jome masjidi qayta ochildi, 39 tasi yangi qurildi va qariyb 100 tasi qayta ta'mirlandi [4].

O'zbekistonda Toshkent Islom universiteti, «Mir Arab» oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, 9 ta madrasa, jumladan, 2 ta ixtisoslashtirilgan xotin-qizlar o'quv yurti, Toshkent pravoslav seminariyasi, Toshkent xristian seminariyasi kabi diniy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. 2020–2021-o'quv yilidan boshlab Termiz shahrida yangi madrasa ochilishi rejalashtirilgan.

Mustaqillik yillarida 308 ming nafar musulmon Saudiya Arabistoniga ziyorat uchun borgan bo'lsa, shulardan 130 ming kishi "Haj", 178 ming kishi yesa "Umra" amalini bajarishga muvaffaq bo'lgan. 2,5 ming xristian va yahudiylar Isroil, Rossiya, Turkiya, Italiya, Gruziya va Yunoniston kabi davlatlarning muqaddas diniy qadamjolariga tashrif buyurganlar.

2019-yildan e'tiboran O'zbekiston fuqarolari uchun "Umra" ziyoratlari kvotasi bekor qilindi. 2018-yildan boshlab "Umra" safari kvotasi 6 000 dan 10 000 ga oshirildi. Bugungi kunga kelib "Umra" qiluvchi fuqarolar soni 30 000 ga yetdi, "Haj" esa 5000 dan 7,200 ga ko'paydi [5].

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5876-son Farmoni bilan millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilib, Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi, 2019 – 2021-yillarda Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" va Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha Komissiya tarkibi tasdiqlangan.

Mazkur Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 1-yanvarga qadar millatlararo munosabatlar sohasida kadrlar tayyorlash, qayta

tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar kompleksini, 2020-yil 1-fevralga qadar millatlararo munosabatlar sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish maqsadida mazkur soha holatini monitoring qilish tizimini tashkil etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini tasdiqlashi belgilab qo'yildi [6].

Xulosa qilib aytganda, qayd qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning hayotga tatbiq etilishi mamlakatda millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yaxlit tizimni rivojlantirish, milliy madaniy markazlar uchun yanada qulay va keng imkoniyatlar yaratish, ularning bunyodkorlik tashabbuslari va intilishlarini qo'llab-quvvatlash, faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarini yanada rivojlantirish, "xalq diplomatiyasi" vositasida chet eldagi vatandoshlar bilan munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Харакатлар стратегияси билан беш йил: ислохотлар сарҳисоби.
<https://strategy.uz/index.php?news=1478>
- 2.Харакатлар стратегияси билан беш йил: ислохотлар сарҳисоби.
<https://strategy.uz/index.php?news=1478>
- 3.Ислом цивилизацияси марказининг 2020 йилги ҳисоботидан.
- 4.2019 йилда Ўзбекистонда 10та янги жоме масжид очилди.
<https://uzreport.news/society/2019-yilda-uzbekistonda-10ta-yangi-jome-masjid-ochildi>
- 5.Ўзбекистонда диний бағрикенглик. "Тараққиёт стратегияси" маркази.
<https://strategy.uz/index.php?news=1014>
- 6.Алдабергенов И. Миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик – бирдамлик омили. <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=35743>
7. Юсупов, А. К. "Роль гражданской активности в демократизации общества." Вопросы политологии 10.9 (2020): 2709-2716
8. Юсупов, Ахрор Курбанович. «РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА». Электронная конференция «Глобус». 2021.

9. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "Teoretiko-methodologicheskie podkhody k povysheniyu politicheskoy kultury grajdan". Journal of perspective zoology 44.S2 (2023): 3916-3925.

10. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI." IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI 3.11 (2023): 42-46.

11. Курбанович, Юсупов Ахроржон. «Роль национальной идентичности в повышении общественно-политической активности молодежи Узбекистана». JournalNX: 177-179.

12. YA Kurbanovich, HM Kakharamonjon o'g'li. DIPLOMATIC AND TRADE-ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KOKON KHAN AND RUSSIA Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3 (5), 183-187

13. Yusupov, Axrorjon, and Usluddin Ergashev. "Qadimgi Misr madaniyati, dini va urf odatlari." Interpretation and researches 1.18 (2023).

14. Юсупов, Ахроржон. "Cultural, spiritual and ideological factors in increasing the social activity of citizens in society." O'zbekiston milliy universiteti xabarлари 1.5 (2022).

15. Джураева, Рамзия и Сарваржон Рахимов. «ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИМЕН ЛЮДЕЙ, УПОТРЕБЛЯЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МУКИМИ». Академические исследования в современной науке 1.19 (2022): 23-26.

16. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "Theoretical and methodological approaches to increase the political culture of citizens." Journal of Advanced Zoology 44.S2 (2023): 3916-3925.26.

17. AK Yusupov the role of national identity in increasing the socio-political activity of the youth of uzbekistan E-Conference Globe, 235-239

18. Юсупов, Ахроржон, and Баходирхан Кодирхан угли Нуманов. "Кипчаки ферганской долины и их участие в этническом процесса." Ученый XXI века 6-2 (2016).

19. Kurbanovich, Yusupov Akhrorjon. "The Role of National Identity in Increasing the Socio-political Activity of the Youth of Uzbekistan." Journal NX: 177-179.

20. Qurbonovich, Yusupov Axrorjon. "Yoshlar Ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish istiqbollari." Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali 3.11 (2023): 42-46.

21. Абдурахимовна, Жораева Рамзия. «Лексико-семантические особенности творчества Муками». Журнал позитивной школьной психологии (2022): 138-144.

22. Абдурахимовна, Жораева Рамзия. «МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТАРИЙ В КРИТИЧЕСКОМ ТВОРЧЕСТВЕ». Международный междисциплинарный исследовательский журнал «Галактика» 10.12 (2022): 1882-1885.

23. Джораева, Рамзия и Нурсан Илдыры. "GIYSILERIN ADI BELIRLENEN SÖZCÜKLER." Развитие педагогических технологий в современных науках 2.5 (2023): 29-37.

24. YA Kurbanovich, HM Kakharamonjon o'g'li. DIPLOMATIC AND TRADE-ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KOKON KHAN AND RUSSIA Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3 (5), 183-187

25. Musaev, Odil and dr. "Sotsialno-filosofskie traktovki takikh ponyatiy, kak "ethnos" i "nation" kak sotsialnaya edinitsa". Mejdunarodnyy zurnal peredovoy nauki i tekhniki 29.5 (2020): 1936-1944.

26. Юсупов, Ахрор. "СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ГРАЖДАН." Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. 2020.